



Surxon vohasi bolalar folklorining o'ziga xos lokal belgilari

Shoymardonov Ilhom Alixonovich –

Termiz davlat universiteti katta o'qituvchi,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD)

E-mail: shaymardonovilhom9@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0009-0005-2235-6766>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Surxon vohasida keng tarqalgan bolalar folklori namunalarining o'ziga xos lokal belgilari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda Surxondaryo viloyati hududlarida saqlanib kelayotgan bolalar o'yinlari, o'yin qo'shiqlari hamda marosimiy folklor unsurlari misolida ularning genezisi, funksional va tarbiyaviy ahamiyati yoritilgan. Xususan, "Gurgurak", "Bo'ri keldi", "Chor po'choq", "Otma tayoq", "Chittigul", "Chuchvara qaynaydi-yo", "Oftob chiqdi olamga", kabi o'yinlar orqali bolalar folklorining ijtimoiy, ma'naviy va estetik vazifalari ochib berilgan. Shuningdek, bolalar folklori matnlarida uchraydigan toponimlar, dialektizmlar, etnografik birliklar va ramziy obrazlar hududiy xususiyatlarni belgilovchi muhim omillar sifatida ko'rsatib o'tilgan. Maqola materiallari Surxon vohasi bolalar folklorining milliy og'zaki ijod tizimidagi o'rni va ahamiyatini aniqlashga xizmat qiladi hamda ushbu sohada olib boriladigan keyingi ilmiy tadqiqotlar uchun muhim manba bo'la oladi.

Kalit so'zlar: "Gurgurak", "Bo'ri keldi", "Assalom jiyda, bodom", "Chittigul", "Chuchvara qaynaydi-yo", "Oftob chiqdi olamga", "Olatoy-bulatoy", "Sadr", "Asha bolam", "O'g'aloq", "Chor po'choq".

Местные свидетельства детского фольклора оазиса сурхан

Аннотация. В данной статье с научной точки зрения анализируются своеобразные локальные особенности детского фольклора, широко распространённого в Сурхандарьинской долине. В исследовании на примере детских игр, игровых песен и обрядовых фольклорных элементов, сохранившихся на территории Сурхандарьинской области, освещаются их генезис, функциональное и воспитательное значение. В частности, на материале таких игр, как «Гургурак», «Бўри келди», «Чор пўчоқ», «Отма таёқ», «Читтигул», «Чучвара қайнайди-йо», «Офтоб чикди оламга», раскрываются социальные, духовно-нравственные и эстетические функции детского фольклора. Также отмечается, что топонимы, диалектизмы, этнографические единицы и символические образы, встречающиеся в фольклорных текстах, являются важными факторами, определяющими региональную специфику. Материалы статьи способствуют выявлению места и значения детского фольклора Сурхандарьинской долины в системе национального устного народного творчества и могут послужить важным источником для дальнейших научных исследований в данной области.

Ключевые слова: «Гургурак», «Вори келди», «Ассалом жийда, бодом», «Читтигул», «Чучвара кайнайди-йо», «Афтоб кылыди аламга», «Олатой-булатой», «Садр», «Аша болам», «Огалок», «Чор почок».

Local signs of children's folklore of the surkhan oasis

Annotation. This article provides a scholarly analysis of the distinctive local features of children's folklore widely spread in the Surkhan Valley. The study examines children's games, game songs, and ritual folklore elements preserved in the regions of Surkhandarya Province, highlighting their genesis as well as their functional and educational significance. In particular, games such as "Gurgurak," "Bo'ri keldi," "Chor po'choq," "Otma tayog," "Chittigul," "Chuchvara qaynaydi-yo," and "Oftob chiqdi olamga" are analyzed to reveal the social, moral, and aesthetic functions of children's folklore. Furthermore, it is emphasized that toponyms, dialectal expressions, ethnographic units, and symbolic images found in folklore texts serve as important indicators of regional characteristics. The materials presented in the article contribute to defining the role and significance of Surkhan Valley children's folklore within the system of national oral folk tradition and may serve as a valuable source for further academic research in this field.

Keywords: "Gurgurak", "Wo'ri keldi", "Assalom jiyda, bodom", "Chittigul", "Chuchvara kaynaydi-yo", "Aftob kylydi alamga", "Olatoy-bulatoy", "Sadr", "Asha bolam", "O'galok", "Chor po'chok".

KIRISH

Surxondaryo viloyatida tarqalgan bolalar folklori boshqa viloyatlardagi aytimlar kabi qadimiy va og'izdan-og'izga o'tib kuylanib kelmoqda. Uning boshqa viloyatlarda aytilayotgan folklor namunalariga o'xshash hamda o'ziga xos farqli jihatlari mavjud.

Filologiya fanlari doktori, professor Mamatqul Jo'rayev Surxon vohasida amalga oshirgan folklor ekspeditsiyasi jarayonida Boysun tumanidagi Duoba shirkat xo'jaligiga qarashli Nazari qishlog'ida bo'lib, shu yerda yashovchi tajribali hisobdor Rizo aka Isoyevdan xalq turmushi va og'zaki ijodiga dahldor qimmatli ma'lumotlarni yozib oladi. Ulardan biri Navro'z bayramidan keyin bolalar, yigitlar o'ynaydigan "shog'ol o'yini"dir. Unda bolalar niqob kiyadilar, soqol-mo'ylov qo'yadilar. Bo'rilar nikiga o'xshagan quloq yasab kiyadi. To'n (chopon)larning orqasini yig'ishtirib, dum qiladilar. O'yinning nomini "Gurgurak" yoki "Bo'ri keldi" deb ham aytadilar. Yosh bolalar va 10-18 yoshgacha bo'lgan bolalar yuqoridagicha ko'rinishga kirib olib, uyma-uy yuradilar. Har bir uyga borganda qo'shiq aytadilar. Uy egasi chiqqanida uni haligi "dum"i bilan uradilar. Uy egalari chiqqach, o'sha xonadon uyining oldida ikki-uch daqiqa o'yin-kulgu qilishgan. Uy egasi, bekalar ularga mayda-chuyda chiqarib beradilar. Bolalarning ikkitasi xaltani ko'tarib yuradi. Bekalar bergan narsalarni o'sha xaltaga soladilar. Qishloqni aylanib chiqqach, to'plangan narsalardan birorta taom pishirib, birgalashib yeydilar va uy egasi sha'niga duo qiladilar. Ortib qolgan narsalarni faqirlarga tarqatishgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

XX asrning 20-30-yillarida M.S.Andreyev, E.M.Peshchereva, A.K.Borovkov, E.K.Borovkova, B.Nalivkin, N.Ostroumov, A.Divayev kabi rus olimlari o'zbek bolalar folklori haqida ilmiy-nazariy tadqiqotlar yaratdilar. Masalan, rus sharqshunos olimi M.S.Andreyev "Havzak-havzak" o'yinini qiyosiy tadqiq etgan bo'lsa, E.M.Peshchereva Farg'ona vodiysi, Toshkent shahri, Zarafshon vohasi va Janubiy O'zbekiston hududlarida tarqalgan "Assalom jiyda, bodom", "Chittigul", "Chuchvara qaynaydi-yo", "Oftob chiqdi olamga", "Olatoy-bulatoy", "Sadr", "Asha bolam", "O'g'aloq" kabi o'yin qo'shiqlarni to'plab, ular to'g'risida qiziqarli fikr-mulohazalarini bildirib o'tgan. A.K.Borovkovning "Dorboz" va "O'zbek bolalarining o'yinlari" nomli maqolalarida Chimkent, Kattaqo'rg'on, Toshkent shaharlaridan to'plangan folklor materiallari asosida o'sha davr bolalariga xos bo'lgan an'anaviy o'yinlar haqida misollar keltirilgan.

Surxon vohasi xalqlari qadimdan xalq qo'shiqlari, termalar, topishmoqlar, maqol va matallar, rivoyat va afsonalar, ertaklar, dostonlar va xalq o'yinlari yaratishga usta bo'lishgan. Ota-bobolarimiz ularni sayllarda, bozor va qishloq ko'chalarida turli-tuman shakllarda ijro etishgan. Hatto qayg'uli kunlar, mashaqqatli damlar haqida, hayvonlar, parrandalar to'g'risida she'r to'qib, qo'shiqlar aytishi ham e'tibordan chetda qolmagan.

Surxon vohasining Angor, Sherobod, Boysun, Qumqo'rg'on, Qiziriq, Sho'rchi, Muzrobod, Bandixon, Jarqo'rg'on, Denov tumanlarida bolalar folklori namunalari haliga qadar jonli ijroda saqlanib kelmoqda. Surxon vohasida ham harakatni tosh (predmet) boshqaradigan o'yinlar "Besh tosh", "Chor po'choq", "To'qqiz tosh", "To'p tosh", "Qadam tayoq", "Otma tayoq" kabi o'yinlar bolalar tomonidan o'ynalib kelinmoqda. Hozirgi kunga qadar Boysun, Sherobod tumanlarida saqlanib qolgan "Otma tayoq" o'yini dala-adirlarga mol boqish uchun chiqqan bolalar tomonidan o'ynalib kelinadigan o'yinlardan biridir. Bu o'yin ikki bola bo'lib o'ynaladigan o'yin bo'lib, birinchi ishtirokchi tayoqni osmonga uloqtiradi, ikkinchi ishtirokchi esa qo'lidagi tayoq bilan uloqtirilgan tayoqni nishonga olib tekizishga urinishgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Uloqtirilgan tayoqqa tayog'ini tekiza olmagan ishtirokchi tayoq tushgan joygacha tayog'ini uloqtirgan ishtirokchini ko'tarib tayoq tushgan joygacha ko'tarib borishgan.

Agarda tekizsa, oldingi tayoq otgan bola tayog'i tekkan bolani tayog'i tushgan joygacha ko'tarib borish shartlari qo'yilgan.

Boysun tumani tog'li hududlarida "Chor po'choq"ni ham o'g'il, ham qiz bolalar o'ynaydi. Unda ikki va undan ortiq bolalar qatnasha oladi. Har bir o'yinchi o'rik donagi yoki yong'oq uyumlariga ega bo'ladi. Ulardan ikkitasini chaqib, ikki palla po'chog'ini oladi. O'yin quroli ana shu to'rtta po'choq hisoblanadi. Yutuqqa ikkitadan donak yoki yong'oq qo'yiladi. O'yin barcha o'yinchilar kelishuvi asosida boshlanadi.

Birinchii o'yinchi po'choqlarni yerga tashlaydi. Yerga po'choqlarning hammasi yoki ikkitasi yopiq holatda tushsa, o'yinchi yutgan hisoblanadi va yutug'iga ikkinchi o'yinchidan ikki donak yoki yong'oq oladi. O'yinni yana o'zi davom ettiradi. Bordi-yu, po'choqlarning aniq uchasi yoki bittasi ochiq holda yerga tushib qolsa, o'yinchi hech qanday yutuq ololmaydi. O'yinni esa navbatdagi o'yinchi davom ettiradi.

Surxondaryo viloyatining tog'li hududlaridan bo'lgan Boysunning bolalari o'yin tugaganidan keyin uy-uyiga tarqalishdan oldin o'yinboshi quyidagi tarqalmachoni aytadi:

Uy-uyiga

Kappa to'yiga

Bir xo'rozim bor

Shuni so'yishga

Bolalarning o'yin tugagandan keyin aytiladigan qiziqmachoq she'ri ham quvnoq kayfiyat hosil qiladi. Masalan,

Hamma uy-uyiga,

Kappa kuyiga,

Bir xo'rozim bor,

Uning to'yiga.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Xullas, folklor hamma zamonlarda ijod sarchashmasi hisoblanib kelingan. Insoniyat ilk ibtidoiy jamoa tuzumi davridan boshlab qo'shiqlar, afsonalar, ertak va dostonlarda o'zining yuksak orzu-umidlarini, qayg'u-g'amlarini ifodalagan. Xalq og'zaki ijodi o'zining romantik rang-barangligi, yuksak optimistik g'oyalar bilan yo'g'rilganligi, xalq turmushi, urinishi, mehnati, xullas, xalq hayotining barcha jabhalari bilan uzviy bog'liqligi bilan ham g'oyatda e'tiborlidir.

Yuksak odamiylik fazilatlarini, vatanparvarlik, xalqparvarlik, donolik, mehr-shafqatlilik, rostgo'ylik, mehnatsevarlik, halollik va kamtarlik kabi eng mo'tabar insoniy qarashlarni tarannum etuvchi bolalar folklori durdonalari yosh avlod qalbiga ezgu g'oyalarni sochishga xizmat qilishi bilan qadrlidir. U kichikintoylar olami bilan kattalar dunyosining uyg'unlashuvi oqibatida yuzaga kelgan. Uni yaratishda kattalar va bolalar baravar hissa qo'shganlar.

Surxon vohasi bolalar folklorining lokal belgilari, avvalo, uning tilida hududga oid joy nomlari (toponimlar), daryolar nomi (gidronimlar), tog' nomlari, shevaga xos so'zlar (dialektizmlar), etnografizmlar, eponimlar qo'llanishida va obrazlantirilishida aks etadi. Ayni damda ularning obrazlantirilishi hudud bolalar folklori poetikasiga xos muhim lokal belgilardan biri hisoblanadi.

XULOSA

Surxondaryo viloyatida keng tarqalgan bolalar folklori namunalari xalq og'zaki ijodining qadimiy qatlamlarini o'zida mujassam etgan bo'lib, ular asrlar davomida avloddan-avlodga og'zaki tarzda yetkazilib kelinmoqda. Ushbu folklor namunalari umumxalq bolalar ijodiga xos xususiyatlarni saqlagan holda, Surxon vohasining tabiiy-geografik sharoiti, tarixiy hayoti, urf-odatlarini va mahalliy shevasiga mos holda shakllanganligi bilan ajralib turadi.

Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, Surxon vohasida bolalar o'yinlari va o'yin qo'shiqlari nafaqat ko'ngilochar ahamiyatga ega, balki tarbiyaviy, ma'naviy va ijtimoiy vazifalarni ham bajaradi. "Shog'ol o'yini", "Otma tayoq", "Chor po'choq" kabi o'yinlar bolalarda jamoaviylik, epchillik, jasorat, adolat va o'zaro hamjihatlik tuyg'ularini shakllantirishga xizmat qilgan. O'yin jarayonida aytiladigan qo'shiqlar va tarqalmachoqlar esa bolalarning nutq madaniyati, estetik didi hamda ijodiy tafakkurini rivojlantirgan.

Shuningdek, Surxon vohasi bolalar folklorida lokal belgilar – toponimlar, dialektizmlar, etnografik unsurlar va ramziy obrazlar muhim o'rin egallashi aniqlandi. Bu holat hudud folklorining o'ziga xosligini belgilab, uni respublikaning boshqa mintaqalaridagi bolalar folkloridan farqlab turadi. Bolalar folklori namunalarida xalqning dunyoqarashi, tabiat va jamiyat haqidagi tasavvurlari sodda, ammo ta'sirchan badiiy shaklda ifoda etilgan.

Xulosa qilib aytganda, Surxon vohasi bolalar folklori xalq ma'naviy merosining muhim tarkibiy qismi bo'lib, uni o'rganish, to'plash va ilmiy jihatdan tahlil qilish bugungi kunda ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ushbu folklor namunalarini asrab-avaylash va yosh avlod ongiga singdirish milliy o'zlikni anglash, ma'naviy barkamol shaxsni tarbiyalashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'rayeva D. Semurg' qo'nar davlatmandning boshiga. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2017. – 138 b.
2. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – Toshkent: O'qituvchi, 1990. – B.29.
3. Shoymardonov.I.A. Surxon vohasi bolalar folklori (o'ziga xos xususiyatlari, tasnifi va badiiyati): Filol. fan. PhD. – Buxoro, 2024. – 10 b.